



TIJORAT BANKLARI KAPITALIDA DAVLAT ULUSHINI KAMAYTIRISH MASALALARI

ISSUES OF REDUCING THE STATE'S SHARE IN THE CAPITAL OF COMMERCIAL BANKS

¹**Raxmatov Azizjon
Jaloliddinovich**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Bank ishi" kafedrası
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitali tarkibida davlat ulushining bosqichma-bosqich kamayishi bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlar yoritilgan hamda 2021-2025-yillar mobaynida banklarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

Eng. - This article examines the economic processes associated with the gradual reduction of the state's share in the capital structure of commercial banks in the Republic of Uzbekistan and analyzes the development trends of the main financial indicators of banks during the period from 2021 to 2025.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, davlat ulushi, xususiylashtirish, bank kapitali, moliyaviy barqarorlik, raqobatbardoshlik.*
❖ *commercial banks, state ownership, privatization, bank capital, financial stability, competitiveness.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida bank tizimini modernizatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish yo'lida qator institutsional va strukturaviy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tijorat banklari kapitalida davlat ulushini kamaytirish masalasi moliyaviy sektorni transformatsiya qilishning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu islohotlar davlatning iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini qisqartirish, xususi sektor ulushini kengaytirish, shuningdek, bank xizmatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Davlat banklarini xususiylashtirish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va moliyaviy xizmatlar bozorida yangi ishtirokchilarning paydo bo'lishi bank sektorining sifat jihatdan modernizatsiya qilinishiga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, bank aktivlari va kapitali tarkibidagi o'zgarishlar transformatsiya jarayonlarini tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu holat, o'z navbatida, banklarning moliyaviy barqarorligi, kredit portfeli sifati va investitsion jozibadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Transformatsiya jarayonlari davomida bank kapitalining diversifikatsiyalashuvi, xususi sektor ulushining ortishi va korporativ boshqaruv tamoyillarining keng qo'llanilishi bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, mavjud o'zgarishlarning miqyosi va samaradorligini baholash, shuningdek, bank tizimi oldida turgan institutsional vazifalarni hal etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar xususiylashtirish jarayonining banklar faoliyatiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Boubakri tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xususiylashtirilgan banklar, ayniqsa davlat ulushi qisman saqlanib qolgan banklarga nisbatan yuqori riskli moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga moyil bo'ladi [1].

Patra tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xususiy banklarda davlat ulushi yuqori bo'lgan banklarga nisbatan yuqori samaradorlik va daromadlilik ko'rsatkichlariga ega ekani aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xususiy banklar mavjud resurslardan samarali foydalanish va raqamli xizmatlarni amaliyotga joriy etish orqali mijozlar bazasini kengaytirish hamda rentabelligini oshirish borasida davlat banklariga nisbatan ustunlikka ega [2].

Ikromov va Alimovaning ta'kidlashicha, 2017-yildan boshlab O'zbekiston bank tizimida xususiy banklar va xorijiy investorlar uchun imkoniyatlar kengaytirilgan, huquqiy tartib-taomillar erkinlashtirilgan bo'lsa-da, xususiylashtirish jarayoni to'liq yakunlanmagan. Mualliflarning qayd etishicha, 2023-yil holatiga ko'ra, davlat ulushi yuqori bo'lgan tijorat banklarining umumiy bank aktivlaridagi ulushi 77 foizini tashkil etgan bo'lib, bu holat bank tizimida yuqori darajadagi konsentratsiya saqlanib qolayotganini ko'rsatadi [3].

Kudaybergenova va Sultanov banklarni xususiylashtirishning afzalliklari, banklar samaradorligini oshirish va bozor ulushini diversifikatsiya qilish masalalarini tahlil qilib, mamlakatda banklararo raqobatni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi [4]. Xususiylashtirish jarayoni bank sektorining raqamlashtirilishi, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish va moliyaviy resurslarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklarida kapital tarkibidagi davlat ulushining kamayishi jarayonlari statistik va qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqotning axborot manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-2025-yillar oralig'idagi ma'lumotlari olindi. Tahlilda aktivlar, kapital, kredit va depozit hajmlari bo'yicha yillik dinamikalar tahlil qilinib, davlat va xususiy banklar o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Shuningdek, transformatsiya jarayonining samaradorligi qiyosiy ko'rsatkichlar asosida baholab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan xususiylashtirish islohotlari bank kapitalida davlat ulushining qisqarishi, moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kuchayishi hamda korporativ boshqaruv mexanizmlarining takomillashuvi bilan parallel tarzda kechmoqda. Mazkur islohotlar davlat tomonidan belgilangan strategik yo'nalishlar asosida amalga oshirilmoqda va bu jarayon O'zbekiston bank tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, xususiy sektorning rolini kuchaytirish hamda umumiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xususan, xususiylashtirish jarayoni banklar o'rtasidagi sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, xizmatlar sifati va ko'lamini kengaytirish, shuningdek, investitsion jozibadorlikni oshirishga imkon yaratmoqda. Shu bilan birga, davlat ishtirokidagi banklarning transformatsiyasi davomida korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish, faoliyat shaffofligini ta'minlash va bozor intizomini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2021-2025-yillar oralig'ida O'zbekiston tijorat banklarida davlat ulushining bosqichma-bosqich kamayib borishi kuzatilmoqda. 1-jadvalda bank aktivlari,

kapitali hamda banklar sonidagi dinamik o'zgarishlar asosida amalga oshirildi.

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
(mlrd. so'm)**

<i>Davr</i>	<i>Davlat ulushi mavjud banklar aktivlari hajmi</i>	<i>Davlat ulushi mavjud banklar kapitali hajmi</i>	<i>Boshqa banklar aktivlari hajmi</i>	<i>Boshqa banklar kapitali hajmi</i>	<i>Davlat ulushi mavjud banklar soni</i>	<i>Boshqa banklar soni</i>
01.01.2021	310 730	48 995	55 392	9 356	13	19
01.01.2022	362 422	57 695	82 501	13 222	12	21
01.01.2023	435 136	61 919	121 611	17 646	12	19
01.01.2024	441 777	63 239	210 380	33 840	10	25
01.01.2025	503 187	70 175	266 143	44 617	9	27

2021-yilda davlat ulushi mavjud banklar aktivlari 310,7 trln so'm bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilga kelib 503,2 trln. so'mga yetgan. Kapital hajmida ham shunga o'xshash dinamikani kuzatish mumkin: davlat banklarining jami kapitali 2025-yilda 2021-yilga nisbatan 43,2 foizga o'sib, 70,2 trln. so'mga yetgan. Biroq, ushbu o'sish sur'ati xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklar aktivi va kapitalidagi o'sish bilan solishtirilganda nisbatan past darajada qolmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi banklar aktivlari 55,4 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ular 266,1 trln. so'mga yetgan. Kapital hajmida ham shunga o'xshash ijobiy dinamika kuzatilgan bo'lib, 2021-yildagi 9,36 trln. so'mdan 2025-yilda 44,6 trln. so'mga oshib, 377 foizli o'sishni qayd etgan.

Ushbu o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan islohotlar samarasi, asosan, xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi banklar orqali namoyon bo'lmoqda. Bu esa nafaqat moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini, balki bozor mexanizmlarining kuchayishini,

raqobatbardosh muhitning shakllanishini ham ta'minlamoqda.

2021–2025-yillar davomida bir qator yirik davlat banklarining, xususan "Ipoteka-bank" va "Poytaxt bank" kabi moliyaviy institutlarning xususiylashtirilishi natijasida O'zbekiston bank tizimida strukturaviy o'zgarishlar ro'y berdi. Transformatsiya jarayonlari bank xizmatlari bozori ishtirokchilari o'rtasida raqobat muhitining kuchayishiga, xizmatlar sifati oshishiga va zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning joriy etilish sur'atlarining tezlashishiga xizmat qildi.

Empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, xususiylashtirish jarayonlari banklarning kapital bazasini mustahkamlash, aktivlar hajmini oshirish va operatsion samaradorlikni yaxshilashga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Xususan, banklarning kapital va aktivlaridagi sezilarli o'sish ushbu islohotlarning makroiqtisodiy darajadagi natijadorligini tasdiqlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin. Bu holat moliyaviy sektorning barqarorligi, raqobatbardoshligi va investorlar uchun jozibadorlik darajasining oshib borayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'mda) [5]

Davr	Davlat ulushi mavjud banklarning kreditlari hajmi	Davlat ulushi mavjud banklarning depozitlari hajmi	Boshqa banklarning kreditlari hajmi	Boshqa banklarning depozitlari hajmi
01.01.2021	244 484	82 461	32 491	32 286
01.01.2022	280 074	104 248	46 312	51 942
01.01.2023	324 681	135 534	65 368	81 203
01.01.2024	333 298	124 358	138 107	117 329
01.01.2025	366 731	154 511	166 391	154 181

O'zbekiston bank sektorida davlat ulushini kamaytirish faqatgina kapital va aktivlar strukturasi emas, balki kreditlash va resurslar bazasining (depozitlar) shakllanishida ham tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. So'nggi besh yillik davrda davlat ulushi mavjud banklar kredit portfeli 50 foizga o'sgan bo'lib, bu ularning barqaror moliyalashtirish faoliyatini davom ettirayotganini anglatadi. Shu bilan birga, ushbu banklarning depozitlar hajmi yanada yuqori sur'atda – 87 foizga oshgan. Bu holat, o'z navbatida, davlat banklari aholining va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy ishonchini saqlab qolayotganligini, ularning barqarorlik va likvidlik jihatidan haligacha nisbiy ustunlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Xususiy va xorijiy banklar esa bank xizmatlari bozorida faol ekspansiyani amalga oshirib, kredit portfelini 412 foizga, depozitlar

hajmini esa 378 foizga oshirishga erishgan. Ushbu keskin o'sish ko'rsatkichlari xususiy banklarning bozordagi ulushi ortib borayotganini, ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalar, xizmatlar sifati va samarali marketing strategiyalari raqobatbardoshlikni sezilarli darajada kuchaytirganini tasdiqlaydi.

Ushbu tendensiyalar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bank sektorini transformatsiya qilish bo'yicha islohotlarning, xususan xususiylashtirish va erkin raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarning samaradorligini ko'rsatadi. Natijada, bank tizimining diversifikatsiyalashuvi, kapitallashuv darajasining oshishi va moliyaviy xizmatlar sifati bo'yicha sifat jihatdan yangi bosqichga o'tish jarayoni kuzatilmoqda.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit-depozit nisbatining strategik tahlili (foizda) [5]

Yil	Davlat ulushi yuqori bo'lgan banklari K/D nisbati	Xususiy banklar K/D nisbat
2021	296	101
2022	269	89
2023	240	80
2024	268	118
2025	237	108

Kredit-depozit (K/D) nisbatining tahlili O'zbekiston bank sektoridagi transformatsiya

jarayonlarini chuqurroq anglashga imkon beradi. 2021–2025-yillarda davlat banklarining

K/D ko'rsatkichi 296 foizdan 237 foizgacha pasaygan bo'lib, bu ularda tashqi moliyalashtirishga tayanish kamayganini, depozitlar bazasi nisbatan kengayganini anglatadi. Biroq, ko'rsatkich hanuz yuqori bo'lib, bu segmentda likvidlik risklari saqlanib qolayotganini bildiradi.

Xususiy banklar esa 2021-yildagi 101 foizli K/D nisbatini 2025-yilga kelib 108 foizga yetkazgan. Bu ular tomonidan balanslangan, xavfsiz kreditlash siyosatining yuritilayotganini ko'rsatadi. So'nggi yillarda bu banklar bozor ulushi va depozitlar hajmining oshishi tufayli resurslar bazasining mustahkamlanishiga erishgan.

Umuman olganda, davlat va xususiy banklar o'rtasidagi K/D tafovuti yildan-yilga qisqarmoqda, bu esa bank tizimida xususiylashtirish borasidagi islohotlarining samara bera boshlaganidan dalolatdir.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston bank tizimida 2021–2025-yillar davomida amalga oshirilgan xususiylashtirish jarayoni davlat ulushi yuqori bo'lgan banklar tarkibini optimallashtirish, ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash va bozor mexanizmlariga asoslangan raqobatbardosh moliyaviy tizimni shakllantirishda muhim omil bo'ldi. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat banklarining aktiv va kapitali mutlaq qiymatda o'sgan bo'lsa-

da, bu o'sish sur'atlari nodavlat banklarga nisbatan sustroq bo'lgan. Shu bilan birga, xususiy banklar faoliyati kredit, depozit va kapital hajmi bo'yicha jadal o'sishni namoyon etgan.

Xususan, nodavlat banklar tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi besh yil ichida 5 baravardan ko'proq, depozitlar esa qariyb 4,8 baravarga oshgan. Bu esa bank mijozlarining xususiy moliyaviy institutlarga bo'lgan ishonchining ortganini ko'rsatadi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekistonda bank kapitalida davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirishga qaratilgan islohotlar moliyaviy sektorda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, bank xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, xususiy banklar segmentining kengayishini rag'batlantirish orqali ijobiy natijalar bermoqda. Ushbu islohotlar doirasida kapitalning diversifikatsiyalashuvi, bozor mexanizmlarining chuqurlashuvi hamda xususiy mulkchilik asosidagi boshqaruv tamoyillarining joriy etilishi kuzatilmoqda. Kelgusi istiqbolda esa bu jarayonni izchil davom ettirish, ilg'or korporativ boshqaruv standartlarini institutsional mustahkamlash va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishlardan biri sifatida saqlanib qolishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boubakri, Narjess and El Ghoul, Sadok and Guedhami, Omrane and Hossain, Mahmud, *Post-Privatization State Ownership and Bank Risk-Taking: Cross-Country Evidence (February 17, 2019)*. *Journal of Corporate Finance*, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3336023> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3336023>
2. Biswajit Patra, Purna Chandra Padhan & Puja Padhi (2023) *Efficiency of Indian Banks – private versus public sector banks: A two-stage analysis*, *Cogent Economics & Finance*, 11:1, 2163081, DOI: 10.1080/23322039.2022.2163081.
3. Ikromov, I., & Alimova, M. (2024). *Modernization and Transformation of Uzbekistan's Banking Sector*. *European Journal of Management, Economics and Business*, 1(3), 238-251. DOI: 10.59324/ejmeh.2024.1(3).21
4. Kundaybergenova Guzal, & Sultanov Umrbek. (2025). *Current process and advantages of privatizing and transforming state-owned banks in uzbekistan*. *World Bulletin of Management and Law*, 44, 17-20. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/5056>.
5. <https://cbu.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki veb-sayti ma'lumotlari.